

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 8-oktabr, № 205 (8828) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYAGA TASHRIF BUYURDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni amaliy tashrif bilan Moskva shahriga keldi.

“Vnukovo” aeroportida davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi Prezidentining yordamchisi Maksim Oreshkin va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

8-oktabr kuni MDH sammitining asosiy tadbirlari bo‘lib o‘tadi. Kun tartibidan Hamdo‘stlik doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari o‘rin olgan.

O‘zA.

SAYLOV — 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo‘yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi nomidan “Xalq farovonligi uchun sifatli ta’lim, malakali tibbiyot va kuchli ijtimoiy himoyani ta’minlaymiz” sarlavhali maqola e’lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

O‘zbekiston — MDH:

UMUMIY TARAQQIYOT VA XAVFSIZLIK MAKONI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni amaliy tashrif bilan Moskva shahriga bordi. Mamlakatimiz yetakchisi 8-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etadi.

Biz va jahon

MDH davlatlari va institutlari bilan aloqalarni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston MDH tashkil topganidan buyon a’zo davlatlar bilan barcha yo‘nalishda samarali hamkorlikni mustahkamlab, transport-kommunikatsiya tarmoqlarini, iqtisodiy aloqalarni ko‘p va ikki tomonlama shakllarda rivojlantirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Hamdo‘stlik doirasida O‘zbekiston uning 65 ta tarmoq tuzilmasi faoliyatida izchil qatnashyapti. Ularning maqsadlari milliy manfaatlarga to‘liq javob beradi. O‘zbekistonning MDH huzuridagi Doimiy vakolatxonasi instituti faoliyat ko‘rsatmoqda.

2017-yildan boshlab O‘zbekiston Hamdo‘stlik doirasidagi faoliyatini sezilarli darajada jadallashtirdi. Xususan, O‘zbekiston so‘nggi yetti yilda avval imzolangan 24 ta ko‘p tomonlama hujjat, MDH oliy organlarining 22 ta qarori va 20 dan ortiq sohaviy hamkorlik organlariga qo‘shildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 – 2023-yillarda Davlat rahbarlari kengashi majlislarida ishtirok etishi natijasida MDH doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 90 ta turli taklif ilgari surildi hamda ularning o‘z vaqtida va to‘liq miqyosda amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida “yo‘l xaritalari” qabul qilindi.

E’tiborlisi, Hamdo‘stlikka a’zo davlatlarning ko‘magi bilan bugungi kunga qadar 80 dan ortiq tashabbuslar hayotiy ijobatini topdi.

MDH davlatlari bilan oliy va yuqori darajadagi tashriflar almashinuvi faollashdi. Bu mamlakatlar Hamdo‘stlikning ulkan salohiyatini ochish, ko‘p tomonlama muloqot va hamkorlikni, Yevroosiyo makonida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga intilishidan dalolat beradi.

Global qiyinchiliklarga qaramay O‘zbekiston MDH doirasida barcha sohada hamkorlikning ijobiy dinamikasini ta’minlab kelmoqda. Iqtisodiyotlarning tarkibiy muvofiqligi ishlab chiqarish kooperativi va savdo-iqtisodiy aloqalarni, mashinasozlik, energetika, kimyo, farmatsevtika, to‘qimachilik va boshqa sohalardagi hamkorlikni muvaffaqiyatli rivojlantirishga xizmat qilayotir. Birgina so‘nggi oylarda MDH mamlakatlaridan bo‘lgan sheriklar bilan 800 dan ortiq yangi korxonalar ishga tushirildi.

O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 20,6 milliard dollarga yetdi, shundan eksport 8,1 milliard AQSH dollarini, import esa 12,4 milliard dollarni tashkil etdi. Joriy yilning yetti oyida Hamdo‘stlikka a’zo mamlakatlar bilan o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi o‘tgan yilning shu davridagiga nisbatan 15 foizdan ortiq o‘sib, 15 milliard dollardan oshdi.

MDH davlatlari va xalqlarini umumiy madaniy-tarixiy meros va ko‘plab gumanitar rishtalar bog‘lab turgani muhim qimmatli manbadir. Bu omillar bugungi kunda Hamdo‘stlikning mustahkam va ishonchli tayanchlari bo‘lib qolmoqda. Madaniy aloqalar jadal rivojlanyapti. Festivallar, konsertlar, turli yarmarkalar, sport va boshqa tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinyapti.

O‘zbekistonning mazkur birlashma a’zosi sifatidagi faol pozitsiyasi har tomonlama hamkorlikni sifat jihatdan boyitish va mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar esa format doirasida keng qo‘llab-quvvatlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

2

Forum

Mintaqa ayollarining muhim platformasi

Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi a’zosi Gulnora Marufova Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan “Ayollar, tinchlik va xavfsizlik: Markaziy Osiyo mintaqasi va Afg‘onistonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashda ayollarning roli” mavzuidagi forumda ishtirok etdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ayollar muloqoti doirasida o‘tkazilgan ushbu forumda mintaqa davlatlari parlamentlarining ayol vakillari, faol xotin-qizlar, qator xalqaro tashkilotlarning ekspert va mutaxassislari qatnashdi.

Anjumanda tinchlik o‘rnatishda ayollar yetakchiligi, iqlim o‘zgarishiga gender moslashuvi, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish masalalari keng muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda mazkur muloqot mintaqada tinchlik, xavfsizlik va gender tenglik masalalarini muhokama qilish yo‘nalishida muhim platformaga aylandi. 2021 – 2023-yillarda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Tojikistonning ushbu forumga raisligi doirasida erishilgan yutuqlar misolida ham buni ko‘rish mumkin.

E’tiborlisi, shu davrda gender tenglik va ayollarni qo‘llab-quvvatlash borasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan qator muhim qarorlar qabul qilindi. Natijada gender istiqbollarini milliy siyosatga integratsiyalash, raqamli inklyuzivlikni kengaytirish, tadbirkor xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash hamda atrof-muhit barqarorligi va tinchlik o‘rnatishda ayollar yetakchiligini kuchaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha salmoqli yutuqlarga erishildi. 2024-yilda Qirg‘iziston raisligi davrida esa ana shu tashabbuslarni amalga oshirish bo‘yicha ishlar izchil davom ettirildi.

Forum davomida vakilimiz O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yuzasidan mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida batafsil to‘xtalib o‘tdi. Ayni chog‘da 2025-yilda ayollar huquqlari himoyasi va gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha global harakatga omil bo‘lgan asosiy hujjat – Pekin harakatlar platformasi qabul qilinganiga 30 yil to‘lishi munosabati bilan katta ishlar amalga oshirilayotgani ham aytib o‘tildi.

Forum yakuni bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish va mintaqaviy miqyosda qarorlar imzolash jarayonlarida xotin-qizlarning rolini kuchaytirishga qaratilgan tavsiyalar qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

Xalqaro anjuman

INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA ILMIY NAZARIYALAR — MUAMMOLARNING MAQBUL YECHIMI

Avval xabar berganimizdek, 3 − 7-oktabr kunlari poytaxtimizda ilk bor VIII Butunjahon paxta tadqiqot konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Dunyodagi qator paxta yetishtiruvchi davlatlar olim va ekspertlari ishtirok etgan mazkur nufuzli anjuman doirasida global iqlim o‘zgarishi sharoitida ekin ekish tizimlari, hasharotlarga qarshi kimyoviy ishlov berish ekologiyasi, robototexnika va sun’iy intellekt kabi mavzular keng muhokama qilindi. Aytish joizki, sessiyalarda ko‘tarilgan muammolar yechimi paxtachilik sektoridagi yangicha yondashuvlar, innovatsion texnologiya, ilmiy nazariyalar va ishlab chiqarish hamda uni amaliyotga tatbiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Anjumanning bir guruh qatnashchilari Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazida bo‘ldi. Mazkur markaz direktori Zabardast Bo‘riyev “Genomikadan innovatsiyalargacha: stressga chidamli yangi avlod paxta navlarini yaratish” mavzuida ma’ruza qildi. Ishtirokchilarda mamlakatimizda paxta genomikasi va sohaga joriy etilayotgan innovatsiyalar, turli zararkunandalarga chidamli navlarni yaratishda mamlakatimiz olimlarining tajribasi katta qiziqish uyg‘otdi.

Konferensiya doirasida “B2B” uchrashuvlari ham bo‘lib o‘tdi. Unda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti hamda Hindistonning “Nath Bio – Genes” kompaniyasi o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Tomonlar tenglik va o‘zaro manfaatdorlik asosida, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq va o‘z vakolatlari doirasida ikki tomonlama sheriklikni rivojlantirish masalalarini muhokama qilishdi. Uchrashuv yakunida ikki tomonlama anglashuv memorandumi imzolandi.

– Bugun dunyoda global iqlim o‘zgarishi xavfi sezilib turgan paytda paxtadan yuqori hosil olish, urug‘chilik, g‘o‘za seleksiyasini rivojlantirish masalalarini hamkorlikda hal etishning ahamiyati nihoyatda katta, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri Bahodir Xalikov. – Shu jihatdan Toshkentda o‘tkazilgan nufuzli anjumanda paxtachilik sohasi olimlari tajriba almashdi va paxta hosildorligini ko‘paytirish, tola sifatini yaxshilash masalalari keng muhokama qilindi.

Hozirgi kunda paxtachilik sohasida global muammolar paydo bo‘lmoqda. Xususan, xarajatlarni kamaytirish, qurg‘oqchilik va issiqqa chidamli yangi navlar yaratishda O‘zbekiston olimlarining ham hissasi katta bo‘lmoqda. Iqlim o‘zgarayotgan bir paytda olimlarimiz tomonidan kashf etilayotgan qurg‘oqchilikka chidamli navlar qator xorijlik olimlar tomonidan yuqori baholandi.

2

ISLOHOTLAR YO‘LIDAGI ISHONCHLI HAMKOR

Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (OIIB) jadal rivojlanib borayotgan yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlardan biri. Xitoy Xalq Respublikasi tashabbusi bilan tashkil etilgan bankning asosiy maqsadi − Osiyo − Tinch okeani mintaqasida moliyaviy hamkorlikni rag‘batlantirish, Osiyodagi yo‘llar va aeroportlardan tortib uy-joy qurilishigacha bo‘lgan infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Nuqtai nazar

Aytish joizki, OIIB Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi yirik xalqaro moliyaviy muassasalarning potensial raqobatchisi bo‘lmasa-da, kredit ajratayotgan davlatga siyosiy talablarni qo‘ymayotganligi bois dunyodagi eng ishonchga sazovor banklardan biriga aylangan.

OIIBning ta’sis etilishi haqidagi ilk yangiliklar 2013-yilning oktabrida paydo bo‘ldi. Indoneziyaga tashrifi chog‘ida XXR Raisi Si Szinpin Osiyo mintaqasini rivojlantirish va uning iqtisodiy integratsiyasiga ko‘maklashish maqsadida Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Zero, o‘sha vaqtlarda boshqa jahon moliyaviy tashkilotlarida islohotlar past sur’atlarda kechayotgan, rivojlangan ayrim davlatlar manfaatlariga xizmat qilayotgan va xalqaro kredit ajratishda boshqa muammolar yuzaga kelayotgandi. 2014-yilning 24-oktabrida Pekindagi marosimda 21 ta mamlakat vakillari O‘zaro anglashuv memorandumini imzoladi. Ular orasida O‘zbekiston ham “salohiyatli ta’sischi a’zo” davlat maqomini oldi.

Tashkilot 2016-yil yanvar oyida Pekinda rasman o‘z faoliyatini boshladi va shu vaqtdan buyon dunyo bo‘ylab 109 ta tasdiqlangan ishtirokchini o‘z safida birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Bankning kapitali 100 milliard dollarni tashkil etadi. U yirik xalqaro kredit reyting agentliklari tomonidan “Triple-A” reytingiga ega.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz bankning eng yirik benefitsiarlaridan biriga aylanib ulgurdi, bu ham yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlarning yana bir samarasidir. Shu yilning 25-26-sentabr kunlari Samarqand shahri Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashining IX yillik yig‘ilishiga mezbonlik qilgani O‘zbekistonga nisbatan dunyoning yuqori ishonchi va hurmatini yana bir karra namoyon etdi. Ushbu sammitda 100 dan ortiq mamlakatlardan yuqori darajali delegatsiyalar, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar rahbarlari hamda vakillari, yetakchi xorijiy kompaniyalarning boshqaruvchilari va nufuzli ekspertlar – umumiy hisobda ikki mingga yaqin vakillar qatnashdi.

4

TA’LIM SOHASIDA STRATEGIK TAFAKKUR ZARUR

Yaqinda mamlakatimizda muhtaram ustozlar, aziz murabbiylar o‘z kasb bayramlarini keng nishonladi. Ularning mamlakat suyanchi va tayanchi bo‘lgan yosh avlod qalbiga ilm-fan, ma’naviyat ziyosini ulashish, millat davomchilarini ma’rifatli qilishdek sharafli mehnatlari munosib baholandi.

Mushohada

Xususan, Prezidentimizning soha vakillari bilan ta’limda amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan muloqot olib borgani barchamiz uchun hayajonli, muhim ahamiyatga ega tarixiy voqelik bo‘ldi. “Vatan va xalq manfaati uchun mardona kurashadigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, bilimli va bunyodkor avlodni kim tarbiyalaydi? Albatta, sizlar – zahmatkash va jonkuyar ustozlar”, deya e’tirof etdi ularni davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, mamlakat yetakchisining muallimlarga bildirgan bu ishonchi va diqqat-e’tibori xalqimizga jadidchilar ahdini, “Tarbiya to‘g‘ri yo‘lni tanlab beradi”, deya millat bolalariga ziyo ulashgan Avloniylarni eslatgani holda ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘zgarishlar markazida vatanparvar, xalqning ertasini o‘ylaydigan, ma’rifatli, sadoqatli avlodni yetishtirish vazifasi turganini aniq ko‘rsatib berdi.

Aytish kerakki, shiddat bilan ildiz otayotgan globallashuv davrida axborot xuruji, “ommaviy madaniyat”, mafkuraviy tahdidlar o‘rgimchak to‘ridek yoyilib, yoshlar ongini yot g‘oyalar bilan zaharlashga urinishlar ko‘payayotganda faqat ilmu ma’rifatgina insonga najot eshiklarini ochadi. Shu bois kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni tarbiyali, yuksak ma’naviyatli, keng tafakkurli, o‘z fikriga ega, dunyo mehnat bozorida rivojlangan davlatlarning yetuk mutaxassislari bilan teng bellasha oladigan raqobatbardosh kadrlar qilib tarbiyalash bugun muhim ahamiyatga ega.

Demak, bunday muhitda sharafli va mas’uliyatli vazifani uddalay oladigan, yuksak intellektual kuchga ega, o‘z bilimi, iste’dodiga suyangan, hech kimdan kam bo‘lmagan navqiron avlodni kamolga yetkazish mamlakatda mehnat qilayotgan barcha ustozlarning muqaddas burchidir. Bu oliy burch unutilsa, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, sohaga yo‘naltirayotgan mablag‘, qurilayotgan bino va inshootlar, moddiy-texnik baza havoga sovurilgandek bekorga ketishi mumkin.

Bundan ancha yillar ilgari, hali maktabda o‘qib yurgan chog‘imizda muallimlarimiz kelajakda o‘qimishli, salohiyatli, jamiyatga foyda keltiradigan kadrlar bo‘lib yetishishimizga bizlarni ishontirgan va o‘zlari ham bunga qattiq ishongan. Chunki bu millat orzusi edi. Biroq u vaqtdagi shart-sharoitlar bilan bugungi kun orasida yer bilan osmoncha farq bor. O‘quvchi va talabalarning asosiy vaqti – “oltin davri” paxta dalalarida majburiy mehnat sharoitlarida o‘tardi. Muallimlar istalgan vaqtda sinfdagi barcha o‘quvchi bilan birga paxta dalasiga, g‘o‘za chopig‘iga, terimga yoki pilla hosilini yig‘ishtirishga olib chiqib ketilardi. O‘quvchilari oldida bunday munosabatlarga loyiq ko‘rilgan ustozlar kasbini yoshlar orzu qilmagani ham sir emas.

2



O‘zbekiston – MDH:

UMUMIY TARAQQIYOT VA XAVFSIZLIK MAKONI

1 Xususan, O‘zbekistonda uddalanayotgan yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligi va bu boradagi xalqaro tashabbuslar natijalari e’tirof etilib, 2024-yilda Toshkent shahri Hamdo‘stlikning Yoshlar poytaxti, deb e’lon qilindi.

2023-yil 13-oktabr kuni Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan MDH Davlat rahbarlarining yig‘ilishida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashkilotning oliy mukofoti – MDH Faxriy nishoni bilan taqdirlangani Hamdo‘stlik doirasida ko‘p tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirishga qo‘shilayotgan hissaning yana bir yuksak bahosi bo‘ldi.

Joriy yilda O‘zbekistonning asosiy tashabbuslarini amalga oshirish doirasida MDH Iqtisodiy kengashining 101-yig‘ilishida 2011-yildagi Erkin savdo bitimiga a’zo davlatlar o‘rtasida Erkin savdo to‘g‘risidagi bitimga kirish bo‘yicha muzokaralarni boshlash imkoniyati to‘g‘risida Bayonnoma qarori, Davlat xaridlari bozori hamda MDHga a’zo davlatlar hududidan o‘tuvchi xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish va infratuzilmani optimallashtirish bo‘yicha 2030-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan Harakatlar rejasi qabul qilindi.

26-sentabr kuni Toshkentda MDHga a’zo davlatlar tahlil markazlarining “Uzoq muddatli hamkorlikning yangi kun tartibi” mavzuidagi xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Anjumanda ta’kidlanganidek, MDH O‘zbekiston uchun muhim hamkor, qo‘shnilar va do‘stlardir, ular bilan mamlakatni taraqqiyot va xavfsizlikning umumiy makoni birlashtiradi.

MDHning Moskvada bo‘lib o‘tadigan navbatdagi sammiti va uning yakunlari mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz farovonligi yo‘lida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi makonida ko‘p tomonlama munosabatlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA.

INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA ILMIY NAZARIYALAR – MUAMMOLARNING MAQBUL YECHIMI

1 Ushbu konferensiya turli qit’alarda paxta ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimlarni birlashtirdi. Ilmiy-amaliy hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Xorijdan kelgan yetuk olim va mutaxassislar yurtimizda faoliyat olib borayotgan ilmiy muassasalar faoliyatini ham chuqur o‘rganishdi. Paxta dalalarimizni ko‘zdan kechirib, ushbu nufuzli anjumanning O‘zbekistonda o‘tayotgani bejiz emasligini yana bir bor e’tirof etdi. Mahalliy g‘o‘za navlari, tola namunalari va ushbu tolalardan ishlab chiqarilgan tayyor milliy mahsulotlarimiz ularda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, konferensiyada paxtachilikdagi mavjud muammolarning yechimlari yuzasidan dunyo olimlari va yetuk ekspertlarning takliflari o‘rganildi.

Qishloq xo‘jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov o‘tkazilgan panel sessiyalar, o‘zaro muhokamalar haqida so‘z yuritar ekan, bugungi kunda ushbu muhokamalar hamda taqdimotlarda ko‘tarilgan mavzular paxtachilik sektoridagi mavjud muammolar uchun zarur yechimlar bo‘la olishini aytib o‘tdi. Bundan tashqari, konferensiya davomida berilgan takliflar nafaqat hozirgi paytdagi mavjud muammolarni hal qilishda, balki kelajak uchun ham juda muhimligini qayd etdi. Faqat bu kabi tadbirlardagina emas, kelgusida ham o‘zaro tajriba almashishni muntazam yo‘lga qo‘yish har tomonlama manfaatli ekani ta’kidlab o‘tildi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Butunjahon paxta tadqiqot konferensiyasi 1994-yildan buyon paxta yetishtiruvchi mamlakatlarda har to‘rt yilda bir marotaba o‘tkazib kelinmoqda. Yurtimizda bo‘lib o‘tgan nufuzli anjumanda g‘o‘za tadqiqotlari sohasidagi 430 nafardan ortiq xalqaro hamda 200 nafarga yaqin mahalliy olimlar, shuningdek, 177 ta paxta-to‘qimachilik klasteri va korxona rahbarlari ishtirok etdi.

Faxriddin BOZOROV (“Xalq so‘zi”).

Mahalliy Kengashlarda

Doimiy komissiyalar faoliyati qoniqarlimi?

Oliy Majlis Senatining Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillari ishtirokida o‘tkazilgan majlisida Toshkent shahar va Farg‘ona viloyati Kengashlarining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari faoliyatini o‘rganish yakunlari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, mahalliy Kengashlarda doimiy komissiyalar faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular mahalliy Kengash tomonidan tasdiqlangan nizom asosida ish olib bormoqda. Doimiy komissiyalar tomonidan mahalliy Kengash ish rejalari ijrosini ta’minlash, nazorat-tahlil tadbirlarini o‘tkazish, mansabdor shaxslar hisobotlarini eshitish yo‘lga qo‘yilgan.

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi doimiy komissiyasining 16 ta, Farg‘ona viloyati Kengashi doimiy komissiyasining esa 14 ta majlisi o‘tkazilgan.

Ushbu tadbirlarda sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat organlari mansabdor shaxslarining qonunchilik hujjatlari bilan ular zimmasiga yuklangan vazifalar ijro etilishi holati bo‘yicha hisobotlari eshitilgan va boshqa nazorat tadbirlari amalga oshirilgan.

Shuningdek, doimiy komissiyalar faoliyati bilan bog‘liq o‘z yechimini kutayotgan ayrim masalalar borligi urg‘ulandi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyaning tegishli qarori qabul qilindi.

Mas’ullarning hisobotlari eshitildi

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining navbatdagi sessiyasida dastlab “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunning yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb qilishga oid qismining viloyatda ijro etilishi holatini o‘rganish yakuni ko‘rib chiqildi. Shu masala bo‘yicha Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Iminov axborot berdi.

Sessiyada viloyatda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga oid davlat dasturlari bajarilishi, kasalliklar profilaktikasining holati, sog‘lom turmush tarzini va to‘g‘ri ovqatlanishni shakllantirish, shuningdek, sog‘liqni saqlashning asosiy ko‘rsatkichlari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holatini o‘rganish yakuni to‘g‘risida senator, viloyat ishchi guruhi rahbari Abira Huseynova axborot berdi.

Mazkur masala yuzasidan viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i, G‘ijduvon tumani hokimi, viloyat endokrinologiya dispanseri bosh shifokori va viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi bosh shifokori hisobotlari eshitildi.

Ko‘rilgan masalalar yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

190 kompaniya mahsulotlari namoyishi

Poytaxtimizdagi “O‘zekspomarkaz” milliy ko‘rgazmalar majmuida “Isitish, ventilyatsiya, konditsionerlash, suv ta’minoti, santexnika, basseynlar, atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyalari va qayta tiklanuvchi energiya manbalari – Aquatherm® Tashkent 2024” 12-xalqaro ko‘rgazmasi o‘tkazildi.

Ko‘rgazma



“Iteca Exhibition” xalqaro ko‘rgazmalar kompaniyasi va qator tashkilotlar hamkorligida uyushtirilgan ushbu tadbirda 12 mamlakatdan 190 kompaniya o‘z mahsulotlarini taqdim etdi.

Ushbu ko‘rgazma shahar infratuzilmasining jadal rivojlanishi va energiya samaradorligiga erishishda yechim izlash uchun katta maydon vazifasini o‘tadi. Unda dunyoning turli hududlaridan kelgan yetakchi mutaxassislar, ekspertlar o‘z g‘oyalari va innovatsiyalarini taqdim qildi.

“Xalq so‘zi”.

TA’LIM SOHASIDA STRATEGIK TAFAKKUR ZARUR



1 Og‘riqlisi, o‘shanda o‘qituvchining ilmiga, tajribasi va pedagogik mahoratiga emas, qo‘lidagi qog‘oziga qaralardi, qog‘oz gapirardi. Natijada savodi “yaralangan” avlod shakllandi va uning ta’siri ko‘p yillar ilm-fanni arosatda ushlab turdi.

Shukrki, u kunlar endi ortda qoldi. Mamlakatga yangi hayot, yangi davr ruhini olib kirgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev milliy tarbiya tizimini mahkam tutib, shu ona xalqning “Ustoz otaday ulug‘” naqlini qalbiga joylab, ziyo ahlining qadr-qimmatini shunday yuksaltirdiki, bugun bu kasb egalarining bayrami ularning sha’ni, qadriyati tantanasiga aylandi.

“Yangilangan Konstitutsiyamizda dunyodagi mo‘tabar shaxs – o‘qituvchi maqomini alohida mustahkamlash, bu kasbni jamiyatdagi eng obro‘li ishga aylantirish mening necha yillik orzuim, kerak bo‘lsa, armonim edi. Chunki o‘zim ham ko‘p yillar shu sohada ishlaganman. O‘qituvchi mehnati qanchalik og‘ir va mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman”, deya ta’kidladi o‘z nutqida Prezidentimiz.

Darhaqiqat, muallimlarning orzu-armoni ro‘yobga chiqdi, Bosh qomusimizda belgilangan bu huquqiy himoya “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunga asos bo‘ldi. Vaqt o‘tib ilm ahliga nisbatan jamiyatda qarashlar butkul o‘zgardi. O‘qituvchi sharafini his etish faqat soha vakillarining emas, balki butun jamiyat, ustozdan bir harf o‘rgangan har bir kishining insoniylik burchi ekanini ko‘pchilik tushunib yetdi. Chunki muallim obro‘si – ilmning, ma’rifatning va millat intellektining e’zozi, mamlakat kelajagining poydevori, strategik tafakkurning mavjudligi demak.

Strategik tafakkur nima?

Bu, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, ta’lim sohasida o‘n – o‘n besh yil oldinni ko‘rmoq, ta’lim maskanlari faoliyatining kelgusidagi natijalarini bugun aniqlay bilmoq, uni kelajak uchun ishlaydigan darajaga ko‘tarmoq degani. Demakki, o‘zgarishlarga moyil davr muallimlarimizdan kuchli strateg bo‘lishni taqozo etmoqda. Mamlakat yetakchisi istayotganidek, bog‘cha yoshidan tortib talabalikka qadar yoshlarimizni har tomonlama ma’rifat bilan, ma’naviyat stixiyasi bilan himoyalamoq, ularning ishonch va hayratga to‘la pokiza qalbini o‘zgalardan avval milliylik, qadriyat, bunyodkor mafkura bilan zabt etmoq zarur. Zero, ertaga uning taraqqiyot yo‘liga – strategiyasiga hech bir kuch g‘ov bo‘la olmasin. Uchinchi Renessans me’morlari bo‘lgan ustozlar o‘sha g‘ovlaru o‘zga maqsadlarni, ularni bartaraf etish usul va uslublarini kamida o‘n yil oldin ko‘ra bilishlari ularning qo‘lida tarbiya topayotgan yoshlarning chinakam baxtidir. Bundan anglaymizki, muammo yechimining kaliti – o‘qituvchi qo‘lida.

Davlatimiz rahbarining “Ta’lim va tarbiya – butun jamiyatning muqaddas ishidir! Barchamizdan doimo hamjihatlik, faollik va fidoyilikni talab etadigan hayot-mamot masalasidir”, degan xitobi naqadar to‘g‘ri ekanini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Ta’lim va tarbiya insonni shakllantirish, uning aqli, ma’naviyati va jismoniy holatini rivojlantirish, bilimi, ko‘nikma va qobiliyatlarini yuksaltirish, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish kabi muhim vazifalarni o‘z zimmasiga olar ekan, bu ishda ota-ona, mahalla, qavmu qarindosh, do‘stu birodar, ta’lim maskani, muallimlar va eng muhimi, jamiyat asosiy rolni o‘ynaydi. Bu borada ta’kidlash zarurki, bizni ta’lim-tarbiyadan avval qilishimiz zarur bo‘lgan muhim bir ishimiz bor, bu – sog‘lom muhit, munosib sharoit va maqsadlari mushtarak bo‘lgan bunyodkor jamiyatni yaratish.

Inson ongini egallash uchun kurashlar avj olgan zamonda uning dunyoqarashi muhit ta’sirida o‘zgarmas ekan, jamiyat o‘zgarmaydi, jamiyat o‘zgarmas ekan, davlat o‘zgarmaydi. Ushbu hayot qonunini chuqur tushungan davlat rahbari aynan biz istagan muhitni, sharoitni shu jamiyat uchun mohirlik bilan, katta kuch va shijoat, yuksak matonat bilan yaratmoqdaki, bugun bu bunyodkorlik kayfiyati butun xalqimizga ko‘chgan.

Mana, natijada o‘tmishda jadidlarimiz orzu qilgan kunlar, kutgan mo‘jizalarning barchasi hayotimizda muhayyo. Shunday ekan, biz ajdodlar orzusini, ma’rifatning, ma’naviyatning muqaddas vazifasini yurak-yurakdan ado etmas ekanmiz, shu xalqqa, jonajon millatga va dunyodagi eng aziz, mo‘tabar xazinamiz bo‘lgan kelajak avlodga xiyonat qilgan bo‘lamiz...

Yangi O‘zbekistonning ertasi bo‘lmish yoshlarimizga ziyo ulashish, ta’lim-tarbiya berish sharafiga ega ekanmiz, bu vazifa emas, saodat yo‘li, oliy burch va vijdon amri deya olg‘a intilajakmiz!

Bahodirjon ShERMUHAMMADOV, Farg‘ona davlat universiteti rektori, professor.

DUNYO BIZNI, BIZ DUNYONI TANIDIK


Mamlakatimizda keyingi yillarda kechayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar xalqaro aloqalarimizda ham o‘z aksini topib, O‘zbekiston yanada faol va pragmatik tashqi siyosat olib bormoqda. Bu siyosat o‘zining progressiv xarakteri va tinchliksevarligi bilan jahon hamjamiyati e’tirofiga sazovor bo‘lyapti.

Tahlil

Aytish mumkinki, ushbu jarayonda parlamentning o‘rni va ahamiyati oshib borayotir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida belgilangan ustuvorliklarni ta’minlash, xalqaro hamkorlikning huquqiy poydevorini mustahkamlash maqsadida 2020 – 2024-yillar davomida Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi o‘z faoliyatini samarali amalga oshirdi.

Qo‘mitamiz tomonidan qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro do‘stona va yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash, dunyodagi barcha mamlakat bilan ochiq, o‘zaro manfaatli va amaliy hamkorlikka qaratilgan siyosat olib borishda parlamentning rolini oshirish, xorijiy mamlakatlarning parlamentlari bilan o‘zaro aloqalarni yanada jadallashtirish, milliy qonunchilikning qabul qilingan xalqaro hujjatlar va shartnomalarga muvofiqligini ta’minlash kabi muhim yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratildi.

O‘tgan davrda qo‘mitamiz qonun ijodkorligi faoliyati yo‘nalishida 39 ta qonun loyihasiga mas’ul bo‘ldi va ularning 38 tasi Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan qabul qilindi. Masalan, birgina “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi Qonunni eng muhim hujjatlardan biri, desak, yanglishmaymiz. Bu qonun O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holatiga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Zero, hujjatda O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari, ularga siyosiy boshpana berish, ularning yurtimizga kirishi va chiqishi, hududimiz orqali tranzit o‘tishi va qoidalarni buzsa uning javobgarligi, respublikamizda bo‘lish tartibi va muddatini qisqartirish, shuningdek, harakatlanishi va vaqtincha yashash joyi (doimiy yashash joyi)ni tanlashi, mehnat faoliyati va boshqa huquqlari belgilab qo‘yilgan.



Ushbu qonun respublikada chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy maqomini tartibga solishning yaxlit tizimini o‘rnatishga, turli (qonunosti) hujjatlar bilan shakllantirilgan huquqiy asoslarni unifikatsiyalash va chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilan munosabatlarning davr talabiga moslashtirilishiga xizmat qilmoqda. Zotan, u yordamida mehnat munosabatlari sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikning shaffof va ochiq tartibi yaratilib, chet el fuqarolarining davlat xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyati vujudga keldi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni ta’minlash lozim.

Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi bu toifadagi shaxslarning huquqlarini himoyalash bo‘yicha zamonaviy usullar va xalqaro standartlarni joriy etishga, Konvensiyaning asosiy qoidalarini amalga oshirishga yordam berdi. Eng muhimi, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning maqsadli resurslarini jalb etish imkoni kengayishiga, mamlakatimizning xalqaro imiji yanada yaxshilanishiga xizmat qildi.

Qo‘mitamiz mas’ulligida qabul qilingan yana bir muhim hujjat – bu nogironligi bo‘lgan shaxslarning muammolarini tizimli va kompleks hal etishga qaratilgan “BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi Qonun bo‘ldi.

Aytish joizki, mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy himoyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu toifadagi shaxslarga Asosiy Qonunimizda nazarda tutilgan fuqarolik, iqtisodiy, siyosiy hamda boshqa huquq va erkinliklarni amalga oshirishda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan norma va tamoyillari, shuningdek, yaxshilanishiga xizmat qildi.

Qo‘mitamiz parlament nazoratining ta’sirchan mexanizmlaridan ham samarali foydalandi. Jumladan, joylardagi tizimli muammolarni hal etish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari zimmasidagi muhim masalalarning o‘z vaqtida ijro qilinishi holati o‘rganildi va uning yakunlari bo‘yicha mas’ullar axborotlari qo‘mita yig‘ilishlarida eshitib borildi.

So‘nggi besh yillikda qo‘mitamiz tomonidan nazorat-tahlil faoliyati doirasida 38 ta tadbir o‘tkazildi. Qonunlar va qonunosti hujjatlari ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat-tahlil tartibida o‘rganishlar yakunlari bo‘yicha davlat va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining axborotini eshitishga katta e’tibor qaratildi. Xususan, Tashqi ishlar, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar, Madaniyat, Investitsiyalar, sanoat va savdo, Iqtisodiyot va moliya vazirliklari rahbarlarining muhim masalalar yuzasidan axborotlari eshitildi.

Nazorat faoliyati doirasida O‘zbekistonga investitsiyalar jalb qilinishidan tortib, investitsiyaviy loyihalarning joylardagi ijrosi masalalarini o‘rganishda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning xorijiy investitsiyalarga taalluqli normalarining Farg‘ona, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Toshkent viloyatlaridagi ijrosi o‘rganilib, ular asosida mutasaddi davlat organlariga tegishli tavsiyalar berildi.

Shuningdek, “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Qonun va “Konsullik ustavi”ga muvofiq, Tashqi ishlar vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha qo‘mita tomonidan nazorat-tahlil tartibida o‘rganishlar olib borildi va ular asosida qonunchilikni takomillashtirish borasidagi yangi vazifalar aniqlangan holda vazirlikka tegishli tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari, qo‘mita tomonidan



keyingi yillarda amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar va uchrashuvlar davomida Yevropa, Osiyo, Markaziy Osiyoning qator davlatlari rahbarlari bilan bo‘lib o‘tgan muzokaralar chog‘ida erishilgan kelishuvlarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan “yo‘l xaritalari” bandlarining mas’ul vazirlik va idoralar tomonidan bajarilishiga ham alohida e’tibor berildi. Bunda aniqlangan masalalar yuzasidan ikki tomonlama parlamentlararo muhokamalar o‘tkazilib, ijro organlarining e’tiboriga amaliy tavsiyalar va yechimlar havola qilindi.

Ma’lumki, oxirgi yillarda Oliy Majlisning xalqaro aloqalari sezilarli darajada kengayib, 57 ta xorijiy davlat parlamentlari, Yevroparlament hamda global va mintaqaviy parlamentlararo tuzilmalar bilan hamkorligimiz yangi bosqichga ko‘tarildi. Oliy Majlisning xorijiy davlatlar parlamentlari bilan hamkorlik bo‘yicha guruhlari va komissiyalari ishlarini faollashtirish, amaliy sheriklikni kengaytirish choralarining ko‘rilishi natijasida parlamentlararo hamkorlik guruhlari faoliyati ham sezilarli darajada jonlandi.

Hozirgi kunda ular O‘zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish, xorijiy davlatlar parlamentlari bilan tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish orqali o‘zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘tgan davrda saylovchilar bilan muloqotlarda ko‘tarilayotgan masalalar va joylarda olib borilayotgan o‘rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarga mutasaddilar e’tiborini qaratgan holda, mavjud muammolarni hal etish uchun mansabdor shaxslarga fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash maqsadida qo‘mita a’zolari tomonidan 59 ta deputat so‘rovi yuborildi.

Xalq bilan ochiq muloqot qilish, ularning dardu tashvishlarini, fikr-mulohaza va takliflarini eshitish keyingi yillarda deputatlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Qo‘mita a’zolari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida o‘rganish hamda ularni hal etishga alohida mas’ullik bilan yondashdi. Masalan, jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan 1700 ga yaqin murojaatlar o‘z vaqtida o‘rganilib, ulardan salmoqli qismi ijobiy hal etilgani diqqatga sazovor.

Keyingi paytda fuqarolar tomonidan yo‘llanayotgan murojaatlarda qonun hujjatlari normalarini takomillashtirishga doir takliflar salmog‘i ham ortganini alohida qayd etish joiz. O‘z navbatida, qo‘mita tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga zarur o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga doir takliflarni o‘rganib chiqishga alohida ahamiyat berildi.

Umuman olganda, o‘tgan davrda o‘z oldimizga qo‘ygan aniq maqsadlarga erishdik, faoliyatimiz har tomonlama mazmunli va samarali bo‘ldi. Eng asosiysi, inson manfaatlarini himoya qilish, odamlarning turmush sharoitini yaxshilash, mamlakatimiz imijini yuksaltirishga qaratilgan muhim qonunlarni qabul qilishga erishdik, deb hisoblaymiz.

Dilorom FAYZIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi raisi.

XALQ FAROVONLIGI UCHUN SIFATLI TA’LIM, MALAKALI TIBBIYOT VA KUCHLI IJTIMOIY HIMOYANI TA’MINLAYMIZ

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Saylovoldi dasturida ayni yo‘nalishlarda ham juda muhim tashabbus va takliflar ilgari surilgan

O‘ZLIDEP

Sifatli ta’lim, malakali tibbiyot va kuchli ijtimoiy himoya har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi va xalq farovonligini ta’minlashda asosiy omillar hisoblanadi. Bu sohalarning rivoji nafaqat mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shadi, balki fuqarolarning sog‘lom turmush tarzi, intellektual salohiyati va ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi. Shu bois davlatimiz tomonidan bu sohalarni yanada takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos darajada rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab olingan.

Keyingi yetti yilda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish strategik vazifa sifatida belgilanib, keng ko‘lamli tarixiy islohotlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Shiddatli tus olgan islohotlar markazida inson va uning qadri turibdi. Zotan, inson munosib sharoitda ta’lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdirdagina, jamiyat va davlat uyg‘unlikda barqaror rivojlanadi.

Siyosiy platformasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga hamohang bo‘lgan O‘zLiDeP Saylovoldi dasturida bayon qilingan jami 500 vazifaning 167 tasi, uchdan bir qismi aynan ijtimoiy masalalarga oid ekani ham bejiz emas.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston “ijtimoiy davlat” deb e’lon qilinishi va bu boradagi majburiyatlarning uch barobarga ko‘payishi har bir siyosiy kuch uchun o‘ziga xos “yo‘l xaritasi”dir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy davlat tamoyillarini qo‘llash, ta’limning barcha bosqichida qamrov va sifat darajasini oshirish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarida ko‘plab ishlar amalga oshirilganini alohida ta’kidlash o‘rinli.

So‘nggi 7 yil davomida ta’lim sohasini rivojlantirish uchun umumiy hisobda 216 trillion so‘m sarmoya yo‘naltirildi. Xususiy ta’lim uchun yaratilgan imkoniyatlar tufayli xususiy maktablar soni 27 tadan 500 tagacha ko‘paydi, nodavlat bolalar bog‘chalari esa 250 tadan 30 mingtaga yetdi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi dunyo miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida tubdan rivojlanib, bog‘chalar soni 8 barobar oshdi, qamrov darajasi esa 27 foizdan 76,4 foizgacha o‘sdi.

Oliy ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Qisqa muddat ichida 135 ta yangi oliygoh tashkil etilib, ularning umumiy soni 211 taga yetdi. Oliy ta’limga qamrov esa 9 foizdan 38 foizgacha ko‘tarilishi tizimda amalga oshirilgan islohotlarning yana bir yorqin misolidir.

Albatta, bu kabi moddiy resurslar, birinchi navbatda, intellektual-ma’naviy resurslar bilan to‘ldirilgandagina ta’limda sifat, samara bo‘lishi shubhasiz. Intellektual-ma’naviy resurslar – bu, avvalo, o‘qituvchining bilim va tajribasi, mahorati, uning madaniy darajasi, ma’naviy saviyasi deganidir.

Shuning uchun ham O‘zLiDeP hali sohada o‘z yechimini kutayotgan masalalar mavjud, deb hisoblaydi va o‘z Saylovoldi dasturi doirasida elektorat e’tiboriga qator g‘oya hamda istiqbolli loyihalarni taqdim etmoqda.

Urg‘u beradigan jihati shundaki, mazkur takliflarning zamirida ta’lim sifatini sezilarli ravishda oshirishga erishish masalasi turibdi.

Jamiyatni ma’rifiy yuksaltirishga intilish – ustuvor maqsad

Ulug‘ ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning: **“Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o‘rgating”**, degan purma’no da’vati partiyaning ta’lim yo‘nalishidagi islohotlarida mayoq bo‘lishi tabiiy. Chunki dunyo miqyosida raqobat yanada kuchayib borayotgan davrda yashaydigan bolalarimizni kelajakka tayyorlab, sog‘lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim-tarbiya jarayonining tub mohiyatini tashkil etadi.

O‘zLiDeP bu islohotlarni qat’iy qo‘llab-quvvatlagan holda **maktabgacha ta’limga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qondirish**ni kafolatlaydi. Bunda **davlat-xususiy** sheriklik va **nodavlat** maktabgacha ta’lim tashkilotlari **birinchi navbatda** qo‘llab-quvvatlanadi. Biz ta’lim va intellektual rivojlanish bo‘yicha **yangi O‘zbekiston dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishi zarur**, deb hisoblaymiz.

Ota-onalar fikri inobatga olinib, barcha bog‘chalar **kompyuter sinfi** bilan ta’minlanishiga e’tibor qaratamiz.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha **ish haqini 2 barobar oshirish** choralarini ko‘ramiz. Bu sa’y-harakatlar bilan biz **ta’lim sifatini** oshirishga, o‘qituvchilarning ishga, o‘z kasbiga bo‘lgan muhabbatini yuksaltirishga hissa qo‘shamiz.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ta’lim sifati o‘qituvchiga yaratilgan qulay imkoniyat bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan biz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida **153 mingdan ortiq sinf rahbarlari** uchun to‘lanadigan **mablag‘ miqdorini ko‘paytirishni, ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni taklif qilamiz**.

Kelgusi yillarda **Maktablarni rivojlantirish davlat dasturi**ni joriy etish O‘zLiDePning diqqat markazida bo‘ladi. Modomiki, najot ilmda, ma’rifatda ekan, biz 2030-yilga qadar qo‘shimcha **2,5 million o‘quvchi** o‘rnini yaratish, **ta’lim sifatini** tubdan yaxshilashni vazifalarimizdan biri sifatida ko‘ramiz. Chunki bugungi kunda mamlakatimizda aholi soni yildan-yilga o‘sib, bunga hamohang tarzda maktab yoshidagi bolalarning soni ham ko‘paymoqda.

Bugun davlat ta’limiga hamohang tarzda nodavlat ta’lim muassasasi ham hayotimizga kirib keldi. Bu raqobat muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqobat esa rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Partiyamiz bu sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlagan holda nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni **2 barobarga** oshirilib, ular faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun **1 trillion so‘m** miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilishi taklifini ilgari suradi. Partiyamiz davlat tashkilotlaridan mustaqil bo‘lgan va ta’lim tashkilotlarini xolisona baholaydigan **nodavlat “ta’lim auditi”** tizimi joriy etilishini ta’limni izchil taraqqiy ettirishda muhim vosita deb hisoblaydi.

Maktab bitiruvchilari masalasi bizning doimiy diqqat markazimizda bo‘ladi va ularni kasbga yo‘naltirishda faol ish olib boramiz. Shu jihatdan 2030-yilgacha bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish ko‘lami **50 foizga** yetkazilishi uchun barcha chorani safarbar qilamiz. Bu esa ularning nafaqat mamlakatimizda, balki xorijdagi nufuzli universitetlarda o‘qishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Albatta, biz yoshlarimizni **“TOP – 100”** global ro‘yxatga kirgan universitetlarda ta’lim olishi uchun **valyutada uzoq muddatli** va **imtiyozli kreditlar berish** amaliyotini joriy etish tarafdorimiz.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar samarasi o‘laroq oliy ta’lim muassasalari ko‘paydi. Pirovardida talabalar yotoqxonasiga ehtiyoj ortdi.

Partiyamiz kelgusi yillarda oliygohlar uchun qo‘shimcha **120 ming o‘rinli o‘quv binolari** va **150 ming o‘rinli talabalar turarjoylarini** qurish borasidagi vazifalar ijrosi nazoratga olinishini ta’minlaydi.

Biz ilm-fanga yo‘naltirilgan mablag‘larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2030-yilgacha **10 barobarga** oshiramiz.

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni **70 foizga** yetkazishga erishamiz. 40 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarning ulushini kamida **60 foizga** yetkazish, ilmiy xodimlar ish haqini o‘rtacha **2 barobarga** oshirish borasidagi tashabbuslarni faol qo‘llab-quvvatlaymiz.

Maqsadimiz – yangi O‘zbekistonni yuksak madaniyat va ma’naviyatga ega bo‘lgan, **erkin, baxtli insonlar yashaydigan** mamlakatga aylantirishga qaratilgan va uni amalga oshirish uchun butun kuch hamda imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Shu munosabat bilan **“Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat”** konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturini ishlab chiqamiz. **Madaniyat** va **sport** muassasalari, **kutubxonalar, teatr** va **muzeylarning** moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash yuzasidan kompleks tadbirlar amalga oshiriladi.

Sog‘lom tanda sog‘ aql yoxud malakali tibbiyotni ta’minlash kafolati

Sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi ham o‘z faoliyatida ana shu haqiqatga tayanadi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarni e’tirof etadi. **Zamonaviy tibbiy xizmat** qamrovi markazdan to chekka qishloqlargacha yetib borayotgani islohotlar muvaffaqiyatidan darak.

Aholi o‘rtasida kasalliklarni keskin kamaytirish, sog‘lom turmush tarzini faol joriy etish, o‘rtacha **umr davomiyligini 78 yoshga yetkazish** kabi eng muhim vazifalar bo‘yicha barcha imkoniyatni to‘liq ishga solishimiz kerak.

Shuning uchun ham O‘zLiDeP kelgusi besh yilda budjetdan tibbiyotga ajratiladigan yillik mablag‘ hajmini kamida **2 karra** oshirish, ya’ni **6 milliard dollarga** yetkazishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilagan. Bunda asosiy e’tibor kasalliklar profilaktikasiga qaratiladi.

Onalar va bolalar o‘limi, bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarni kamida **2 barobarga** qisqartirish, onkologik, yurak-qon tomir, qandli diabet bo‘yicha erta o‘limni esa **2,5 barobarga** kamaytirishga bor kuchimizni safarbar etamiz.

Biz xotin-qizlar o‘rtasida onkologik kasalliklarni kamaytirish maqsadida **40 yoshdan oshgan ayollar** uchun tegishli **davriylikda tibbiy ko‘rikdan** o‘tish joriy qilinishiga erishamiz. Kasallik muddati o‘tib ketishiga va avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali **kafolatlangan bepul tibbiy yordam, uning aniq hajmining** huquqiy asoslarini ishlab chiqishda partiya faol ish olib boradi.

Xorij tibbiyotida o‘zining ijobiy samaralarini berayotgan tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tishni bugun davrning o‘zi taqozo etib turibdi. Biz **“Tibbiy sug‘urta to‘g‘risida”gi** qonun loyihasini ishlab chiqishni tezlashtiramiz. **Davlat tibbiy sug‘urtasi** bilan birga **nodavlat tibbiy sug‘urta** tizimini **joriy etishni** muhim tashabbus sifatida ilgari suramiz. Shu tariqa tibbiyotda xususiy sektorning ulushini **25 foizga** yetkazish choralari ko‘riladi.

O‘zLiDeP xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlovchi siyosiy kuch sifatida **nodavlat tibbiyot** muassasalariga aholining hayoti, sog‘ligi va sanitariya-epidemiologik xotirjamligi uchun yuqori darajadagi xavf-xatar bilan bog‘liq tibbiy faoliyat turlaridan boshqa **barcha tibbiy xizmatlarni** ko‘rsatishga, **murakkab operatsiyalarni** amalga oshirishga **ruxsat berish** va **litsenziyalash tartibini yanada soddalashtirishni** taklif etadi.

Biroq **“Adolat” SDPning quyidagi g‘oyasini nojo‘ya taklif deya tanqid qilishdan o‘zga ilojimiz yo‘q. Ularning fikricha, tibbiyot daromad olish manbaiga aylanib qolmasligi uchun nodavlat tibbiyot tashkilotlari “tijorat tashkiloti”dan notijorat tashkilotiga o‘tkazilishi kerak emish.**

Bunga aslo qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki xususiy tibbiyot sog‘liqni saqlash sohasida sifat va raqobatni rivojlantirishni ta’minlaydi. Xususiy tibbiyot davlat tibbiy xizmatiga muqobil xizmat turi bo‘lib, u davlat tibbiyot muassasalariga yukni kamaytiradi va budjet xarajatlari iqtisod qilinishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda xususiy tibbiyot muassasalari soni 8,5 mingdan oshib, jami tibbiy xizmatlarda **22 foiz** ulushni tashkil etadi. Tibbiyot sohasiga xususiy sektorning kirib kelishi O‘zbekistonda **tibbiy turizmning** rivojlanishiga asos soldi.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning yanvar – iyul oylarida jami **67,4 ming** nafar chet el fuqarosi davolanish maqsadida O‘zbekistonga tashrif buyurgan.

Demak, xususiy tibbiyotni notijorat shaklga o‘tkazish davlat tibbiyot muassasalariga yuklamaning ortishiga, sifatning yo‘qolishiga olib keladi. Natijada xalqimiz zarar ko‘radi.

“Har bir oila o‘z uyiga ega bo‘lsin”

Mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ijtimoiy davlat qurish va uning asoslarini yaratish yo‘lida katta islohotlar davom etmoqda. Ijtimoiy davlat asoslari esa har bir oilaning o‘z uyiga ega bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq. Bugun uy-joy qurilishi keng ko‘lamda amalga oshirilayotgani fikrimizga aniq asos bo‘la oladi. Partiyamiz ham bu sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlagan holda **“Har bir oila o‘z uyiga ega bo‘lsin!”** degan shiorni amalga tatbiq etadi. Binobarin, hayotga kirib kelayotgan yosh oilalar, birinchi navbatda, o‘z uyiga ega bo‘lishi lozim.

Bizning maqsadimiz kelgusi yillarda qo‘shimcha uy-joy qurilishi sohasiga **15 milliard** dollar mablag‘ni yo‘naltirish orqali **1 million** xonadonli uy-joylar qurilishiga erishishga qaratilgan. Ajratilgan mablag‘larning o‘z o‘rnida va maqsadli ishlatilishi ham juda muhim. Partiyamiz bunday uylarning shinam va chiroyli, zilzilaga chidamli qilib qurilishiga katta e’tibor qaratadi.

Aholiga **imtiyozli** hamda **uzoq muddatli kreditlar** berilishini tizimli yo‘lga qo‘yamiz. Shuningdek, yangi uy-joy sotib olgan fuqarolarga **qo‘shilgan qiymat solig‘ining yarmini qaytarib berish** tizimini joriy etamiz. Bu oilalarning uy-joy masalasini hal qilishda muhim qadam bo‘ladi.

Inson qadri, ijtimoiy himoyasi – ustuvor maqsad

Yangi tahrirda qabul qilingan Asosiy Qonunimizda mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari **davlat himoyasida** bo‘lishining belgilangani mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

O‘zLiDeP **“Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat”** tamoyili asosida ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish yo‘lida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shu maqsadda, partiya **ijtimoiy himoya milliy agentligining** vakolatlari va faoliyat ko‘lamini yanada kengaytirishni ta’minlash orqali agentlikka ijtimoiy yordam va himoya xizmatlarini samarali tashkil etish uchun ko‘proq imkoniyat va resurslar yaratib berish tarafdori.

Mehnatga yaroqli aholiga yanada qulay ijtimoiy muhit yaratishda partiya faol ish olib bormoqda. Shu jihatdan biz maosh oluvchi fuqarolarni mehnatga **haq to‘lashning** eng kam miqdorining **3 barobarigacha daromad solig‘idan ozod etilishiga erishamiz**. Sa’y-harakatlarimiz aholining oilaviy daromadi oshishiga va pirovardida hayot darajasi yuksalishiga xizmat qiladi.

Biz har bir odam hayoti qadrli ekanini e’tirof etib, **nogironlikni belgilash** jarayonlarini soddalashtirish, sarsongarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, Tibbiy ijtimoiy ekspert komissiyalari bemor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni **elektron tizimdan olishi va elektron rasmiylashtirishi kerak**, deb hisoblaymiz. Ma’lumotlarni elektron tizimda olish va elektron rasmiylashtirish inson omili ishtirokini kamaytirishga xizmat qiladi.

Partiyamiz nogironlikni belgilashda **ijtimoiy modelga o‘tish** yo‘nalishida tizimli ish olib boradi. **Ishlash istagidagi** nogironligi bor shaxslarga **zarur sharoitlar** yaratilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Kelajagimiz egalariga e’tibor manzilni yaqinlashtiradi

Partiyamiz yoshlar uchun manfaatli **ish o‘rinlarini yaratish** va **tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish** yo‘nalishlarida tizimli ishlar olib boradi. Yoshlarni hunar va zamonaviy kasblarga, xorijiy tillarga o‘qitish, ma’naviyati va ma’rifatini yuksaltirish, kitobxonlikni rivojlantirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, IT sohasi va sportga keng jalb etish kabi aniq rejalarni amalga oshiramiz. Shuningdek, **yoshlar bandligi** va **ishbilarmonligini** faol qo‘llab-quvvatlashni ustuvor vazifamiz sifatida belgilaganmiz.

Yoshlar uchun zamonaviy kasblarga o‘qitish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqamiz hamda korxonalar buyurtmasi asosida **kasbga tayyorlash** amaliyotini joriy qilamiz. Bu orqali yoshlarni **ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlash** samaradorligini oshirishni ko‘zlayapmiz. Shuningdek, partiyamiz tashabbusi bilan har bir viloyatda kamida 100 gektar maydonda **“Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazi”** tashkil qilinadi va bu markazlar yoshlar uchun chinakam **“loyihalar fabrikasi”** bo‘lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlikka qadam qo‘ygan yoshlarimiz uchun **mikromoliyalash** xizmatlarini kengaytirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratamiz. Shuningdek, o‘z biznesini **ijaraga olingan binoda boshlayotgan yoshlar uchun ijara xarajatlarining 50 foizini bir yil davomida qoplab berish** mexanizmini joriy qilamiz.

Yoshlar orasida IT sohasini ommalashtirish va IT xizmatlari eksportini kengaytirish uchun **“maktab – oliygoh – IT kompaniyasi”**dan iborat yaxlit **“IT ta’lim”** zanjirini yaratishni ko‘zlayapmiz.

Yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, **yoshlar uchun maxsus uy-joylar qurish** va imtiyozli ipoteka kreditlarini ajratishni ustuvor vazifamiz sifatida belgilaganmiz. Shu maqsadda har yili kamida **1 mingta yosh oilaga imtiyozli ipoteka** kreditlarini ajratishni ta’minlaymiz va bu orqali yoshlarimizning o‘z uylariga ega bo‘lishlariga erishamiz.

Xotin-qizlar va yoshi ulug‘ insonlarga barcha sharoitlar yaratiladi

O‘zLiDeP jamiyatda **ayollar tadbirkorligini faollashtirishga** qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi. Ayollarning **masofaviy mehnat va raqamli tadbirkorlik** bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirishga jiddiy e’tibor qaratish orqali ular orasidagi **ishsizlik darajasini 2-marta kamaytirish** qat’iy maqsadimizdir.

Boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini **ko‘paytirish** tarafdorimiz. Qiyin ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar uchun **huquqiy** va **psixologik yordam ko‘rsatish** xizmatini kengaytirishning institutsional va huquqiy asoslarini mustahkamlaymiz.

Tug‘uruq ta’tilidagi ayollar uchun **onlayn ishlash tizimini** joriy etish yuzasidan huquqiy asoslar yaratilishi bo‘yicha izchil ish olib boramiz. Tadbirkorlik subyektlarining yopilishi natijasida **ishsiz qolgan yosh bolali ayollarni** qo‘llab-quvvatlash uchun ularni **ishsizlikdan sug‘urtalash** tizimini joriy qilamiz.

Keyingi yillarda mamlakatimizda keksa avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularni sog‘lomlashtirish ishlarini samarali tashkil etish va bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ijtimoiy hayotdagi faolliklarini oshirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ishlarni davom ettirish maqsadida O‘zLiDeP **keksalar sog‘ligini tiklash** va **mazmunli dam olishi** uchun alohida dastur qabul qilish taklifini ilgari surmoqda.

Partiya mamlakatimizdagi uch milliondan ortiq nuroniylar **har yili bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi**, shifoxona va sihatgohlarda davolanishi, ular uchun yurtimiz bo‘ylab **sayohatlar tashkil etilishiga** ko‘maklashadi.

“Keksalar salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish orqali **70 yoshdan oshgan keksalarga bepul tibbiy va zarur ijtimoiy xizmatni kuchaytirish**ni ilgari suramiz. Pensiya tizimini takomillashtirish orqali jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarining bir qismini fuqarolar ehtiyojlari uchun ular **pensiya yoshiga yetmasdan to‘lab berish** amaliyotini joriy qilamiz.

Biz birgalikda katta kuchmiz! Qudratimiz ham shu birligimizda! Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun birlashgan vatandoshlarimizni “Va’da emas natija, ertaga emas bugun” uchun, partiyamiz uchun ovoz berishga chaqiramiz!

Erkin ZAXIDOV,
Sevara UBAYDULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar.







O‘ZLIDEP VA UNING DEPUTATLIKKA KO‘RSATGAN NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 8-oktabr

ISLOHOTLAR YO‘LIDAGI ISHONCHLI HAMKOR

1 “Barcha uchun barqaror infratuzilma yaratish” mavzuida o‘tkazilgan bu galgi yig‘ilish kun tartibidan global iqtisodiyot va moliya sohalaridagi dolzarb masalalar, Osiyo va dunyoning boshqa mintaqalarida infratuzilmani rivojlantirishning strategik dasturlari va rejalari muhokama qilindi. Bunday yuqori darajadagi tadbirning o‘tkazilishi O‘zbekistonning jahon investitsiyaviy hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirish bilan bir qatorda, ishbilarmon doiralar vakillariga mamlakatimizning iqtisodiy, sarmoyaviy, sanoat va ishlab chiqarish salohiyati, boy madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Bu esa yurtimizga sarmoyalar oqimining yanada ko‘payishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

E’tirof etish joizki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ko‘p tomonlama rivojlanish banki sifatida barqaror, ekologik toza va texnologik infratuzilmalarni moliyalashtirish orqali Osiyoda va undan tashqarida insonlarning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini oshirish bilan shug‘ullanadi. Bank barqaror infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash, transchegaraviy aloqalarni mustahkamlash va xususiy kapitalni safarbar qilishga qaratilgan. Markaziy Osiyoda OIIB mintaqaviy aloqalarni rivojlantirish, energiya va suv resurslari boshqaruvini yaxshilash hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki Boshqaruvchilari kengashi IX yillik yig‘ilishining ochilish marosimida nutq so‘zlagan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokchilar e’tiborini, eng avvalo, yurtimizda o‘tkazilayotgan islohotlarga qaratgani bejiz emas. Chunki O‘zbekiston ortga qaytmas islohotlari bilan dunyo davlatlariga namuna bo‘lmoqda. Bugungi kunda dunyoda murakkab geosiyosiy vaziyat saqlanib qolayotgan, global iqtisodiyotda beqarorlik kuchayib, oziq-ovqat va energiya resurslari taqchilligi ortib, ekologik muammolar keskinlashib borayotgan bo‘lsa-da, oxirgi sakkiz yilda yalpi ichki mahsulotimiz hajmi 2 barobar ko‘payib, ilk bor 100 mlrd. dollardan oshgani, kelgusi besh yilda bu raqam 160 mlrd. dollarga yetishi kutilayotgani ulkan yutuq sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa xalqaro hamjamiyat tomonidan “O‘zbekiston – Osiyoning yangi arsloni” deb nomlanishiga sabab bo‘lyapti. Va



buning uchun boshqa asoslar ham bor.

Masalan, to‘rt yil ichida mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 23 foizdan 11 foizga tushirildi. Kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali usullaridan biri, bu – sifatli ta’lim. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz ta’limdagi loyihalarni xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikning yangi istiqbolli yo‘nalishi sifatida belgilab olishni taklif qildi. Ayni chog‘da, O‘zbekiston energetika, suv, transport, IT va boshqa infratuzilmalarni yaxshilash uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hamkorligi va madadiga yanada kuchli ehtiyoj sezmoqda. Zero, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, 30 mlrd. dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha katta dastur ishlab chiqilgan. Toshkent – Samarqand va Toshkent – Andijon yo‘nalishlarida pullik avtomobil yo‘llari, Toshkent – Samarqand, Samarqand – Navoiy – Buxoro yo‘nalishlarida tezyurar poyezdlar uchun yangi temir yo‘l qurish loyihalari, 6 ta xalqaro aeroportni modernizatsiya qilish rejalari shular jumlasidan.

Yana bir ustuvor yo‘nalish – “yashil” iqtisodiyotni jadal rivojlantirish. O‘zbekistonda 2030-yilga borib “yashil” energiya ulushini 40 foizga yetkazish maqsad qilingan. Yaqin yillarda quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalar, infratuzilma obyektlari va tarmoqlarini qurish rejalashtirilayotir. Yirik “yashil” ma’lumotlar markazlarini tashkil etish ham ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga “yashil” sertifikatlar bozori shakllantiriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Markaziy Osiyoni “yashil” energiyaning yirik eksportchisiga aylantirishga qaratilgan loyihalarda ham faol ishtirok etmoqda. Bunga misol sifatida Transkaspiy energiya ko‘prigi qurilishini aytib o‘tish mumkin. Loyihaning amalga oshishi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Ozarbayjonga “yashil” energiyani Yevropa bozorlariga birgalikda sotish imkonini beradi.

Shu o‘rinda yirik mintaqaviy infratuzilma loyihalari haqida so‘z ketganda, qurilishi boshlanayotgan Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi haqida ham to‘xtalish joiz. Bu temir yo‘l Trans-Yevroosiyo transport yo‘lagi janubiy qismining tarmoqlaridan biriga aylanadi. Tahlillarga ko‘ra, uning qurilishi hajmi tobora ortib borayotgan yuk tashish ishlarini samarali amalga oshirish, xususan, tashish vaqti va narxini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Yuk tashish yillik hajmi 15 mln. tonnagacha yetishi mumkin, tovarlarni yakuniy iste’molchilarga yetkazish muddati esa 7 kunga qisqaradi. Bundan tashqari, zamonaviy tranzit va logistika infratuzilmasi, omborxonalar va terminallar, yangi korxonalar va o‘n minglab ish o‘rinlari yaratiladi, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi va sanoat kooperatsiyasi ko‘lami, investitsiyaviy jozibadorlik o‘sadi va asosiy natija – fuqarolarning turmush darajasi oshadi.

> *“OIIBning O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlardagi, izchil demokratik hamda iqtisodiy yangilanishidagi o`rni va ahamiyati beqiyos. So`nggi yillarda mazkur bank O`zbekiston iqtisodiyotiga 3 mlrd. dollardan ziyod sarmoya kiritdi. Buning sababi O`zbekistonda investitsiya va investorlar uchun qulay, xavfsiz muhit shakllanganligidir. Prezidentimizning tashqi siyosatdagi ochiqlik va tashabbuskorlikka asoslangan siyosati tufayli Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasida ishonch kuchaydi, u yaxlit “organizm”ga aylanishi uchun jiddiy qadamlar tashlanyapti. Buning ortidan sarmoyalar O`zbekistonga talpinyapti.”*

Bilamizki, ayni paytda jahonda va Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligi hamda suv resurslari taqchilligi muammolari o‘tkir tus olayotir. Dunyo aholisining to‘rtdan bir qismi toza ichimlik suvi muammosiga duch kelayotgani, qariyb 800 mln. kishi o‘ta qashshoqlik sharoitida yashayotgani shundan dalolat beradi. Mamlakatimiz rahbari Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan hamkorlikda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha Mintaqaviy markaz tashkil etish tashabbusini ilgari surganining sababi ham shunda. Bu tashabbusning ro‘yobi esa so‘nggi ikki yil davomida yiliga 10 foizga kamayib, moliyaviy resurslar narxi 2 barobar oshgan.

Bunday sharoitda OIIB kabi xalqaro moliya tashkilotlarining roli tobora ortib bormoqda. Bankning infratuzilma, energetika, transport, suv ta’minoti, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarni qamrab olgan 15 ta qo‘shma loyiha portfeli 3 mlrd. dollardan oshgan, 4 mlrd. dollarlik yangilangan dastur ijrosi bo‘yicha kelishuvga erishilganligi ham munosabatlarning chuqurlashib borayotganligidan dalolatdir. Masalan, OIIB bilan hamkorlikda Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan ichimlik suvi tarmoqlarini yaxshilash bo‘yicha 720 mln. dollarlik loyiha qariyb 1,5 mln. aholini toza ichimlik suvi bilan uzluksiz ta’minlaydi. Yoki Buxoro – Xiva temir yo‘lini elektrlashtirish loyihasini ishga tushirish natijasida Xiva shahriga yiliga qo‘shimcha 1 mln. turist jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

Umuman, nufuzli xalqaro moliyaviy anjumanning Samarqandda o‘tkazilishi suv taqchilligi oshib borayotgan bir paytda muammo ko‘lamini kamaytirish imkonini beradi.

Boz ustiga jahonda raqobat kuchaygan, yirik davlatlar o‘rtasida ziddiyatlar keskinlashib borayotgan bugungi davrda mahsulot yetkazib berishning an’anaviy logistika zanjirlari buzilmoqda, bu esa xomashyo resurslari va iste’mol tovarlarining qimmatlashuviga olib keldi. Bularning barchasi infratuzilmaga bo‘lgan yuklamani keskin oshirib, iqtisodiy rivojlanishga to‘siq bo‘lyapti. Shu ma’noda, 2030-yilgacha dunyoda yangi infratuzilma yaratish uchun 15 trln. dollar investitsiya talab etiladi, xorijiy investitsiyalar oqimi nafaqat O‘zbekistonning moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida, balki butun mintaqa taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Mazkur anjuman O‘zbekistonda demokratik rivojlanish va jamiyatni yangilash, erkin bozor iqtisodiyoti asoslarini mustahkamlash, tarkibiy o‘zgarishlarni va investitsiya dasturlarini amalga oshirish borasida bajarilgan ishlarni yana bir bor yuksak professional darajada tanqidiy baholash uchun qulay sharoit yaratdi.

Shu ma’noda, OIIBning O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlardagi, izchil demokratik hamda iqtisodiy yangilanishidagi o‘rni va ahamiyati beqiyos. So‘nggi yillarda mazkur bank O‘zbekiston iqtisodiyotiga 3 mlrd. dollardan ziyod sarmoya kiritdi. Buning sababi O‘zbekistonda investitsiya va investorlar uchun qulay, xavfsiz muhit shakllanganligidir. Prezidentimizning tashqi siyosatdagi ochiqlik va tashabbuskorlikka asoslangan siyosati tufayli Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ishonch kuchaydi, u yaxlit “organizm”ga aylanishi uchun jiddiy qadamlar tashlanyapti. Buning ortidan sarmoyalar O‘zbekistonga talpinyapti. Xullas, bugun Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiyotning turli sohalarida keng ko‘lamli investitsiya va integratsiya loyihalarini amalga oshirish uchun, hech bir mubolag‘asiz, beqiyos istiqbollar ochilmoqda, kapital va tovarlar uchun qudratli va ulkan bozor yuzaga kelmoqda, muvaffaqiyatli biznes uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Aslida ham xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimida Markaziy Osiyoning ulkan geostrategik va geosiyosiy, boy resurs imkoniyatlariga ega mintaqa sifatidagi o‘rni beqiyosdir. Ushbu salohiyatdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri, bu – birinchi galda, ulkan mintaqamizdagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashdan iborat. Bunda OIIB Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki bilan hamkorlikda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan hamda ushbu jarayonga Markaziy Osiyo mintaqasining muhim integratsiyalashgan qismiga aylanishi lozim bo‘lgan Afg‘onistonni ham faol jalb qilishni ko‘zda tutuvchi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishga ko‘maklashishi maqsadga muvofiq.

Asosiysi – yangi, ko‘p variantli kommunikatsiya va transport, jumladan, avtomobil va temir yo‘l tarmog‘ini yaratish. Ulardan biri – Prezidentimiz tashabbusi bo‘lgan Janubiy va Markaziy Osiyo o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga qaratilgan Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Karachi temir yo‘li qurilishi. U esa kelgusida Hind, Atlantika va Tinch okeanlarining muhim portlariga chiqish imkonini beradigan yagona, o‘zaro bog‘langan transport kommunikatsiyalari tizimiga aylanadi.

Ikkinchidan, mintaqa mamlakatlarining uglevodorod xomashyosiga boy zaxiralarining istiqbolli bozorlarga chiqishini ta’minlaydigan magistral quvurlarni modernizatsiya qilish va rivojlantirish.

Uchinchidan, suv resurslari samaradorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha maqsadli dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish.

To‘rtinchidan, amaldagi magistral tarmoqlar va elektr quvvatini ishlab chiqaruvchi tizimlarni modernizatsiya qilish, shuningdek, energetika resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydigan mintaqaviy infratuzilmalarni rivojlantirish.

Beshinchidan, mintaqa mamlakatlariga keskin ijtimoiy va ekologik muammolarni hal etishda yordam berish borasida sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini rivojlantirishga ko‘maklashish.

Mintaqamizni farovon hududga aylantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bu yo‘nalishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, Buyuk Ipak yo‘lini zamonaviy asosda qayta tiklash borasida muhim qadam bo‘ladi.

Shu ma’noda, OIIB kabi moliyaviy tashkilotlarning O‘zbekistonda o‘z tadbirlarini o‘tkazayotgani, yirik qo‘shma loyihalarga investitsiyalar yo‘naltirayotgani mintaqa mamlakatlarini qayta tiklash va yangilash borasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish, mintaqaviy va xalqaro integratsiyalashuv bo‘yicha belgilangan rejalar, umume’tirof etilgan demokratik mezonlar va qadriyatlarga erishish yo‘lida bizga qat’iy ishonch beradi.

To‘lqin TESHABOYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SPORT

Yurtimiz mezbonlik qilgan jahon chempionati yakunlandi





14-sentabr – 6-oktabr kunlari yurtimiz mezbonlik qilgan futzal bo‘yicha jahon chempionati yakuniga yetdi. Tartib bo‘yicha o‘ninchi bor tashkil etilgan turnirda Braziliya o‘z tarixida oltinchi chempionligini qo‘lga kiritdi.

Mundial bahslarida dunyoning eng sara 24 ta terma jamoasi 6 guruhga bo‘linib ishtirok etdi. Undagi 52 ta o‘yin Toshkentdagi “Humo arena”, Andijon va Buxorodagi universal sport majmualarida qizg‘in kurashlarga boy o‘tdi.

Finalda esa Janubiy Amerikaning eng kuchli ikki jamoasi to‘qnash keldi va yakunda Braziliya Argentina ustidan 2:1 hisobida g‘alaba qozonib, 12 yillik tanaffusdan so‘ng yana jahon kubogini boshi uzra ko‘tardi. Bungacha 3-o‘rin uchun kechgan bahsda ikki Yevropa jamoasi ro‘baro‘ kelgan va unda Ukraina Fransiyani tor-mor etib (7:1), bronza medaliga sazovor bo‘lgan edi.

Darhaqiqat, milliy terma jamoamiz musobaqada muvaffaqiyatli qatnasha olmagan bo‘lsa-da, yurtimizdagi muxlislik madaniyati hamda mezbonlik darajasi dunyoga yana bir bor amalda ko‘rsatib qo‘yildi.

Elyor HAYDAROV
(“Xalq so‘zi”).

Saralash bahslari davom etadi

Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi 2026-yilda Kanada, AQSH va Meksika yashil maydonlarida o‘tkaziladigan navbatdagi Jahon chempionati saralash bahslarining Eron hamda BAA terma jamoalariga qarshi o‘yinlar oldidan navbatdagi o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlariga kirishdi.

O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, bosh murabbiyimiz Srechko Katanes salomatligi yomonlashgani sababli shifokorlar tavsiyasiga ko‘ra, ushbu bahslarda qatnasha olmaydi. Ikki muhim uchrashuvga jamoamizni uning yordamchi murabbiylari Aleish Chex hamda Vlado Radmanovich tayyorlashadi.

Mazkur yig‘inga quyidagi futbolchilar chaqirilgan.

Darvozabonlar: O‘tkir Yusupov, Botir Ergashev, Abduvohid Ne’matov; **himoyachilar**: Rustam Ashurmatov, Umarbek Eshmurodov, Husniddin Aliqulov, Abduqodir Husanov, Farrux Sayfiyev, Hojiakbar Alijonov, Sherzod Nasrullayev; **yarim himoyachilar:** Jamshid Iskandarov, Aziz Turg‘unboyev, Akmal Mozgovoy, Odiljon Hamrobekov, Abdulla Abdullayev, Otabek Shukurov, Muhammadqodir Hamraliyev; **hujumchilar:** Eldor Shomurodov, Bobir Abdixoliqov, Jaloliddin Masharipov, Xojimat Erkinov, Abbosbek Fayzullayev, Oston O‘runov.

Dastlab 3-turda O‘zbekiston terma jamoasini Eronga qarshi o‘yin kutib turibdi. “A” guruhining yetakchilari o‘rtasidagi bellashuv 10-oktabr kuni soat 19:00 da start oladi. O‘yin “Bunyodkor” stadionida o‘tkaziladi.

15-oktabrda esa BAA terma jamoasi futbolchilarimiz bilan Toshkentda saralash uchrashuvining 4-tur doirasida bahs olib boradi.

“Xalq so‘zi”.

REKLAMA

TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

quyidagi lavozimlarga kafedralar bo‘yicha tanlov e’lon qiladi:

Terapiya fakulteti:

1. Gastroenterologiya va fizioterapiya kafedrasi dotsenti, assistenti;
2. Nevrologiya kafedrasi dotsenti;
3. Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasi mudiri;
4. Kardiologiya va gerontologiya kafedrasi dotsenti;
5. Endokrinologiya kafedrasi dotsenti.

Pediatriya fakulteti:

1. Bolalik davri asab kasalliklari kafedrasi dotsenti;
2. Klinik farmakologiya kursi assistenti;
3. 2-Akusherlik va ginekologiya kafedrasi assistenti;
4. 1-Pediatriya kafedrasi dotsenti;
5. Pediatriya va bolalar ovqatlanishi kafedrasi dotsenti.

Xirurgiya fakulteti:

1. Oftalmologiya kafedrasi katta o‘qituvchi;
2. Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasi assistenti;
3. 2-Ultratovush diagnostikasi kafedrasi dotsenti, assistenti;
4. Xirurgik stomatologiya kafedrasi assistenti;
5. Stomatologiya, bolalar stomatologiyasi va ortodontiyasi kafedrasi dotsenti.

Tibbiy profilaktika fakulteti:

1. Mikrobiologiya, immunologiya va molekulyar genetika asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi;
2. Gigiyena kafedrasi assistenti;
3. Klinik laborator diagnostikasi kafedrasi mudiri, stajyor o‘qituvchisi;
4. Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi dotsenti, assistenti;
5. Epidemiologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi;
6. Gigiyena kafedrasi dotsenti;
7. OITS-infeksiya muammolari kursi rahbari – dotsenti.

Menejment, ijtimoiy va birlamchi sog‘liqni saqlash fakulteti:

1. Tibbiyot texnikasi va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha injener-texnik xodimlar kafedrasi assistenti;
2. Preventiv tibbiyot va valeologiya asoslari kafedrasi assistenti;
3. Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish kafedrasi assistenti;
4. Neyroxirurgiya kafedrasi dotsenti.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Parkent ko‘chasi, 51-uy. Telefon.: 71-267-60-74.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.25 Topshirildi — 23.20 1 2 3 4 5 6